

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI YUQORI SINFLARIGA ONA TILINI O'QITISHDA SAMARALI METODLARNI QO'LLASH VA TATBIQ ETISH

Boymirzayeva Nilufar Anvar qizi

TerDU o'zbek filologiyasi sirtqi ta'lif yo'nalishi 5-bosqich talabasi,
Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi 27-sonli umumiy o'rta ta'lif maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Bilamizki, ona tili har bir fanning, har bir sohaning asosi hisoblanadi. Qaysi kasb egasi bo'lmasin, u matematikmi yoki kimyogar o'z ona tilini puxta bilmasa, demak, o'z sohasini ham yetarli darajada egallay olmaydi. Bu fanni bolalarga-maktab o'quvchilariga o'rgatish ayniqsa muhimdir. Quyida ona tilini o'quvchilarga samarali o'rgatishni umumiy o'rta ta'lif maktablarining 7-sinfiga moslashtirilgan holatida ko'rib chiqamiz.

KALIT SO'ZLAR: Ona tili, umumiy o'rta ta'lif, 7-sinf, metodika, metod, bola psixologiyasi, o'qituvchining uslubi, bahs-munozara, savol ichida savol.

Ijodiy tafakkur ijodiy izlanish, mustaqil fikrlash orqali rivojlanadi. Ehtimol o'quvchidagi noma'lum bo'lgan til hodisalarini bilish jarayoni faollashadi, egallangan bilimlarning puxtaligi va qiziqlarliligi ta'minlanadi, til materiallarini bilishga qiziqlish ortadi. Ijobiy o'quv motivlari shakllanadi. Demak, tafakkurni o'stirish - til mashg'ulotlarida til hodisalarini kuzatish, baholash, taqqoslash, tasnif qilish, umumlashtirish, o'xshash vositalardan eng qulayini to'g'ri tanlay olish ko'nikmasini shakllantirish asosida yuzaga keladi. Til o'qitish metodikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri nutq madaniyatini rivojlantirishdir. Nutqning ifodalilik va ta'sirchanligini (so'z urg'usi va mantiqiy urg'u, pauza va ovoz tembri, nutq sur'ati, tovushlar, bo'g'in, so'z, gaplarni ravon aytish, gap mazmuniga ko'ra darak, so'roq, buyruq, undov ohangi bilan ajrsta olish) ta'minlashga xizmat qiladi ko'nikma va malakalar ham ona tili mashulotlarida shakllanadi.

«Ona tili» darslarida uzundan-uzoq, murakkab grammatik qoidalarni, «O'zbek adabiyoti» darslarida ijodkor hayotidagi o'tkinchi sana va voqealarni yodlashga majbur qilmasdan, balki ona tilida sof so'zlash, o'z fikrini to'g'ri ifodalay olish, mustaqil

fikrlash, badiiy asarni ifodali o'qish, uning ruhini his qilish, badiiy san'atidan lazzatlanish, so'zdan zavqlanish ruhida ta'llim bermoq kerak. Ona tili va adabiyot o'qitishdan kutilgan pirovard natija, ona tili o'qitishning samarali bo'lishi ko'p jihatdan buni adabiyot bilan bog'lab olib borishga bog'liq, yoki aksincha. Aslida, ona tili, adabiyot darslarida ham o'rganiladi. Masalan, badiiy asarning tilini tahlil etish davomida ba'zi grammatik shakllarning uslubiy ahamiyati, sinonimlarning nutqda tutgan o'rni izohlanadi va hokazo; o'quvchi va talabalar tilning turli ifoda vositalari bilan tanishib boradilar. Badiiy asar tili bo'yicha muayyan bir izchillikda olib boriladigan ishlar o'quvchi va talabalarning so'z boyligini oshiradi va nutqini o'stiradi. Adabiy asarning tasviriy vositalari bo'yicha sinfda va undan tashqari bajarilgan ishlar natijasida o'quvchi va talabalar so'z haqida, uning turli nutq uslubidagi o'rni haqida kengroq tushunchaga ega bo'la boradilar. Xilma-xil ifoda jilolari tilning estetik ta'siri va ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Ona tili o'rta maktab, akademik litseylar va kasbhunar kollejlarida o'rganiladigan barcha fanlarni puxta o'zlashtirish uchun muhim «kalit» sanaladi. Til vositasida o'quvchi va talaba boshqa fanlarni o'rganadi. Barcha fanlar yuzasidan fikrni yozma va og'zaki ravishda bayon qilish orqali u o'z ona tilini ham mukammal o'rganib boradi. Yuqoridagi jumlalar naqadar ulkan haqiqatni o'zida mujassam etgan. Ona tili darslari o'quvchi uchun faqat qoida yodlash va mashq bajarishdangina iborat zerikarli fan bo'lmasligi kerak. Ona tilini har bir o'quvchi bu fanga chuqur mehr qo'ygan holatda o'rganishi lozim. O'qituvchi bu darsni shu darajada qiziqarli olib borsinki, o'quvchi uni yana davom etishining tarafdoriga aylansin. Biz bilamizki, 7-sinf o'quvchisi bolalik va kattalik davri orasida bo'ladi. Ammo katta emas, ammo katta ham emas. Shunday vaziyatda o'qituvchilar bola uchun bu ikki davrning o'rtasida ko'rik bo'lishi kerak. Bu yoshdagи bolaga o'ziga xos muomala qilinmasa o'quvchi ham, o'qituvchi ham qiynaladi. Bu davrda bolalar sho'xlikning avji pallasida bo'lishadi. O'qituvchi ularni o'ziga qaratishi oson bo'lmasligi tabiiy hol. Ammo buni uddalash mumkin. O'z tajribamdan kelib chiqib shunga guvoh bo'ldimki, 7-sinflar uchun qiziqarli metodlardan foydalanish darsning qizg'in va taassurotlarga boy tarzda o'tishiga sababchi bo'ladi. Masalan, o'qituvchi sinfga kiradi. Uning darsi aytaylik oxirgi soatlarga qo'yilgan. Bolalar charchagan, zerikkan, uyga ketgisi kelib turibdi. Mana shunday holatda qanday qilib o'quvchining diqqatini darsga qaratish mumkin? Shunday bo'lsinki, o'quvchi o'zi xohlagan holda darsning ichiga kirsin, undan zavq olsin. Men sinagan usul (metod)larning eng yaxshisi "Bellashuv-

musobaqa" metodi bo'lib, bunda o'quvchining diqqati ayni bir joyga jamlanadi. Darsni ham o'zi sezmagan holda tez va oson o'zlashtiradi. Masalan deylik 7-sinf ona tili darsligidagi ijtimoiy tarmoqlar mavzusini o'zlashtirishimiz kerak. Uni ustoz kitobdan o'qib bersa, bolalar esnay boshlaydi, shovqin qilib sinfni boshiga ko'tarishi ham mumkin. Endi bu vaziyatda 2-usul yuqorida aytilgan "Bellashuv-musobaqa" metodini qo'llash. 6 qator joylashgan bolalarni 1-2-3 qator va 4-5-6 qatorlarga bo'lib olamiz. 1-2-3 qatordagilar 1 -guruh 4-5-6 qatordagilar 2-guruh a'zolari hisoblanadi. Doskada har ikki guruh uchun ustun ajratamiz va 1 ballik tizimda o'quvchilarni baholashni aytamiz. Ya'ni bunda har bitta to'g'ri javob bir ball. Oxirida guruhlardagi ballar alohida qo'shib chiqib, hisoblanadi va natija e'lon qilinadi. O'rtaga ziddiyatli topshiriq qo'yiladi. 1-guruhga ijtimoiy tarmoqlarning ijobi (yaxshi) tomonlarini 2-guruhga esa salbiy (yomon) tomonlarini topish topshiriq sifatida beriladi. 2 guruh galma-gal javob berib o'z fikrini aytadi va ball yig'ib boradi. Masalan, 1-guruh ijtimoiy tarmoqdan ko'pgina ilmiy ma'lumot topishini aytса, 2-guruhdan boshqa o'quvchi ijtimoiy tarmoqning ko'zga zararligini aytadi. Bahs qizg'in ravishda davom etadi. Bunda bola o'z shaxsiy fikridan foydalanadi, izlaydi, qidiradi, topadi, aytadi. Shu tarzda o'zi bilmagan holda darsni o'zlashtira boshlaydi. Mana har bir bola o'z fikrini aytди deylik. Har bir fikr hayotiy bo'lganidan ball to'pladi. Mavzu kitobga qaralmasdanoq o'zlashtirildi. Chunki bolalar aytgan fikrlar orasida aynan kitobda berilgan javoblar ham bor edi. Musobaqa so'ngida g'olib jamoa qarsaklar bilan "siylanadi". 2 guruhdan ham eng faol bo'lgan o'quvchilar baholanib, kundaligiga faolligi haqida qayd etilsa, keyingi safar o'quvchi yanada faol bo'ladi. Mana oddiy bir metodning ta'limda qanchalik o'rni borligini ko'rib chiqdik.

Xulosa qilib aytganda, bu kabi metodlardan foydalanish o'quvchining darsda faolliginiga ta'minlab qolmasdan, balki darsning qiziqarliroq o'tishiga sabab bo'ladi. Har bir bola alohida individual yondashuvni talab etadi, o'qituvchining diqqat va e'tiboriga sazovor bo'lishni xohlaydi. Ammo 40-45 daqiqada bu talabni qondirish oson kechmaydi. Yuqoridagi kabi metodlar esa bir vaqtning o'zida butun sinf bilan ishlashni va ularning diqqatini bir joyga jamlashni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, va boshq. "Ona tili o'qitish metodikasi" –T.: «Fan va texnologiya», 2012 yil.
2. Abdurahmanova, M., & Malikova, Z. (2022). O 'ZBEK TILIDA SOTSIOLEKT. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 104-107.
3. Atadjanova, M. A. (2016). Animatic mythology and its functional nature in the current Uzbek prose. Молодий вчений, (1), 290-294.
4. B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyadova. «O'zbek tili o'qitish metodikasi». «Yangi asr avlodи», 2006 yil.
5. Ergashevna, S. N. (2021). LATEST DEVELOPMENT OF THE ART OF BAKHSI IN UZBEKİSTAN. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 10(8), 49-55.
6. Sabirova, N. E. (2022). Xorazm vohasida baxshi ijrochiligi genezisi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 656-663.
7. Tursunalievna, A. M., & Azizaxon, R. (2022). TILSHUNOSLIKDA KOGNITIV YO'NALISHLAR. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA, 1(2), 117-123.